

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”



Samarqand davlat veterinariya  
meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti

rektori

X.B.Yunusov

2024-yil 08

OTLARNING BARMOQ VA TUYOQ KASALLIKLARI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000	– Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	840000	– Veterinariya
Mutaxassislik:	70840107	– Trening va ot kasalliklari

Samarqand - 2024



Fan modul kod OBTK1206		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 6	
Fan modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklari	90		90	180
2.	I. Fanning mazmuni				
<p>Fanni o'qitishdan maqsad – magistr talabalarga bir tuyoqli hayvonlarida otlarda uchraydigan barmoq va tuyoq kasalliklariga qarshi amaliyot sharoitida profilaktik ishlarini bajarish, tuyoq patologiyalarini o'rganish va ularni to'rilash, barmoq kasalliklarining etiologiyasi va patogenezini hisobga olgan holda zamonaviy davolash usullarini qo'llashni o'rgatishga mos fan bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – hayvonlarda uchraydigan barmoq va tuyoq kasalliklarining kelib chiqish sabablarini aniqlash tamoyillarini ishlab chiqish va tavsiya qilish. Barmoqlari kasallangan hayvonlarda zamonaviy konservativ davolash va operatsiya usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya qilish hamda bu sohada malakali magistrnlarni tayyorlash bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatish, magistrnlarning amaliy faoliyatida olgan bilim, ko'nikmalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishiga erishish.</p>					
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)					
II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:					
1-mavzu. Kirish. Bir tuyoqli hayvonlar barmoqlarining anatomo–topografik tuzilishi.					
<p>“Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklari” fanining maqsadi va vazifalari. Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklaridan kelib chiqadigan iqtisodiy zarar. Bir tuyoqli hayvonlarning birinchi va ikkinchi falangalar sohasi tuzilishi. Uchinchi falanga sohasi tuzilishi. Tuyoqning qaft sohasi tuzilishi. Eshak va xachir barmoqlarining ayrim anatomik xususiyatlari.</p>					



**2-mavzu. Barmoq va tuyuq kapsulasining fizik va kimyoviy xossalari.**

Barmoq va tuyuq kapsulasining fizik va kimyoviy xossalari. Barmoq kapsulasining fizik va kimyoviy xossalari. Tuyuq kapsulasining fizik va kimyoviy xossalari. Barmoqning fiziologik xususiyatlari. Tuyuqning fiziologik xususiyatlari. Tuyuq shoxining o'sish xususiyatlari.

**3-mavzu. Otlar tuyuqlarni parvarishlash qoidalari. Bir tuyuqli hayvonlar tuyuqlarini tozalash va kesish.**

Otlar tuyuqlarni parvarishlash qoidalari. Bir tuyuqli hayvonlar tuyuqlarini tozalash va kesish. Bir va juft tuyuqli hayvonlar tuyog'ini tozalashda va taqalashda texnika xavfsizligi. Tuyuqlarni parvarishlash. Ot tuyog'ini kesish (tozalash). Tuyuqlar o'sishi va rivojlanishini to'g'ri yo'lga qo'yish.

**4-mavzu. Otlarni taqalashdan avval bajariladigan ishlar.**

Otlarni taqalashdan avval ko'zdan kechirish. Taqalashda otni fiksasiya qilish va unga nisbatan muomala qilish. Eski taqani yechish va tekshirib chiqish. Ustaxonaning jihozlanishi. Taqalash bo'limiga bo'lgan talablar. Taqalarni yasash uchun qo'llanadigan asbob va uskunalar.

**5-mavzu. Otlar tuyuqlarini taqalash tamoyillari.**

Otlar tuyuqlarini taqalash tamoyillari. Taqa tarixi. Tuyuqdan o'lchamlar olish. Taqalash uchun qo'llanadigan asboblari. Taqani tuyuqqa qoqish tartibi. Taqa qismlari. Taqalash mixlari. Taqani yasash texnikasi. Taqani almashtirish muddati. Oyoqlari noto'g'ri harakatlanadigan otlarni taqalash.

**6-mavzu. Otlar oyoqlarini noto'g'ri bosadigan va tuyuqlari deformasiyaga uchragan hayvonlarni taqalash.**

Otlar oyoqlarini noto'g'ri bosadigan va tuyuqlari deformasiyaga uchragan hayvonlarni taqalash. Otlar tuyuqlarini taqalash tamoyillari. Taqani almashtirish muddati. Oyoqlari noto'g'ri harakatlanadigan otlarni taqalash. Turli yo'nalishlarda ekspluatatsiya qilinadigan otlarni taqalash. Eshak va xachirlarni taqalash.

**7-mavzu. Otlar tuyuqlarini kasalliklarda tekshirish.**

Otlar tuyuqlarini kasalliklarda tekshirish. Otlarda tuyuqlarni umumiy tekshirish usullari. Otlarda tuyuqlarni maxsus tekshirish usullari. Tuyuqlar tug'ma nuqsonlari. Otlar tuyuqlarini rengenologik tekshirish. Tuyuq kasalliklarini oldini olish choralari. Tuyuq kasalliklarini oldini olishga umumiy talablar.



**8-mavzu. Tuyoq kasalliklari.**

Tuyoq aylanasi kasalliklari. Yumshoq tovon kasalliklari. Tuyoq kafti kasalliklari. Barmoqlar oralig'i kasalliklari. Tuyoq kasalliklarini oldini olish choralari. Tuyoq kasalliklarini oldini olishga umumiy talablar. Tuyoqlar deformatsiyasi va ularni to'g'rilash usullari. Tuyoq shoxsimon kapsulasi patologiyalari.

**9-mavzu. Tuyoqning teri asosi kasalliklari.**

Tuyoqning teri asosi kasalliklari. Diffuz shakldagi aseptik pododermatit. Diffuz shakldagi septik pododermatit. Tuyoqlarning revmatik yallig'lanishi. Pododermatit kasalliklarda barmoqlarning zararlanishi. Otlarda tuyoqni laminit kasalligi. Otlarda desmotomiya operatsiyasi. Otlarda desmotomiya kasalligini konservativ davolash.

**10-mavzu. Barmoq suyaklari va bo'g'imlari kasalliklari.**

Barmoq suyaklari va bo'g'imlari kasalliklari, etiologiyasi, davolash va oldini olish. Barmoqning ikkinchi falangasi (yumaloq suyak) sinishi. Barmoqning ikkinchi bo'g'imi cho'zilishi va chiqishi. Otlarda tuyoqsimon bo'g'imi yallig'lanishi. Otlarda desmotomiya operatsiyasi. Otlarda desmotomiya kasalligini konservativ davolash.

**11-mavzu. Otlar tuyog'ining pay va pay qini kasalliklari.**

Otlarning pay va pay qini kasalligi(tendinit, tendovaginit). Otlar tuyog'ining payining cho'zilishi. Otlarda desmotomiya operatsiyasi. Otlarda desmotomiya kasalligini konservativ davolash. Tos – son payining yallig'lanishi. Tos – son payininguzilishi.

**12-mavzu. Otlar barmoq bo'g'imini yallig'lanishi.**

Otlar barmoq bo'g'imini yallig'lanishi. Barmoq bo'g'imining cho'zilishi. Barmoq bo'g'imining artrozi. Barmoq bo'g'imining gemartrozi. Barmoq bo'g'imining revmatik yallig'lanishi. Otlarda katta va kichik barmoq bo'g'imini suyaklarining sinishlari.

**13-mavzu. Otlar tuyoq bo'g'imini yallig'lanishi.**

Tuyoq bo'g'imining cho'zilishi. Tuyoq bo'g'imining artrozi. Tuyoq bo'g'imining gemartrozi. Tuyoq bo'g'imining revmatik yallig'lanishi. Tos – son bo'g'imining chiqishi. Tos – son payining yallig'lanishi. Tos – son payininguzilishi. Tos – son bo'g'iminingyorilishi.



#### **14-mavzu. Otda tirsak sohalaridagi kasalliklar**

Otning tirsak sohasidagi anatomo-topografik ma'lumotlari. Tirsak do'ngligi bursitlari. Tirsak bo'g'imining lat yeyishi va cho'zilishi. Tirsak bo'g'imining yiringli yallig'lanishi. Tirsak suyagining sinishlari. Bilaguzuk pay qinlarining yallig'lanishlari. Kaft suyaklarining yorilishi va sinishi.

#### **15-mavzu. Otda bilaguzuk sohalaridagi**

Otda bilaguzuk sohalaridagi shikastlanishlar. Otning bilaguzuk sohasining anatomo-topografik ma'lumotlari. Prekarpal bursit. Bilaguzuk bo'g'imining jarohatlari. Bilaguzuk bog'imining yallig'lanishlari. Bilaguzuk pay qinlarining yallig'lanishlari. Kaft suyaklarining yorilishi va sinishi.

### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

#### **III.I. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Ot barmoqlarining anatom-fiziologik xususiyatlari.
2. Bir tuyoqli hayvonlar tuyoqlariga ishlov berishda harakatsizlantirish va fiksatsiya usullari.
3. Tuyoqlarni tozalash va kesish tartibi.
4. Temirchilik ustaxonasiga bo'lgan talablar va ichki tuzilishi.
5. Ot taqasining tuzilishi va yasash texnologiyasi.
6. Otlarni taqalash tartibi.
7. Oyoqlarini noto'g'ri bosadigan hayvon tuyoqlarini to'g'rilash usullari.
8. Yalpoq (yassi) tuyoqni to'g'rilash.
9. To'lishgan yoki bo'rtib chiqqan tuyoqni to'g'rilash.
10. Qisq tuyoqni to'g'rilash.
11. Qiya tuyoqni to'g'rilash.
12. Qiyshiq tuyoqni to'g'rilash.
13. O'tmas burchakli yoki tik tuyoqni to'g'rilash.
14. Ustunchasimon tuyoqni to'g'rilash.
15. O'tkir uchli (o'tkir) tuyoqni to'g'rilash.
16. Shoxsimon kapsulasi mo'rt (oson sinadigan) va yumsoq tuyoqni to'g'rilash.
17. Tuyoq (tuyoqchalar) yorilishi va tuyoq devorining ajralishi.
18. Tuyoqlarni umumiy va maxsus tekshirish usullari.
19. Tuyoq aylanasi yiringli kasalliklarida zamonaviy davolash usullaridan foydalanish.
20. Tuyoqning kaft qismi (o'qchasi) va yumshoq to'voni jarohatlari.
21. Tuyoq bo'g'imining cho'zilishini davolash.
22. Tuyoq bo'g'imining artrozini davolash.



23. Barmoq bo'g'imining revmatik yallig'lanishini davolash.
24. Barmoq bo'g'imining gemartozini davolash.
25. Barmoq bo'g'imining cho'zilishini davolash.
26. Otda kaft sohalaridagi
27. Otning sag'ri va son sohalaridagi kasalliklar.
28. Otda tizza va bolder, tovon bo'g'imi sohalaridagi kasalliklar.
29. Otda tovon bo'g'imi sohalaridagi kasalliklar.
30. Katta va kichik boldir suyaklarining sinishlari.

Amaliy mashg'ulotlar zarur asbob-uskunalar, preparatlar bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Bir tuyoqli hayvonlar oyoqlarining distal qismi kasalliklari.
2. Sport otlar oyoqlarining distal qismi kasalliklari.
3. Sport otlar tuyoqlarini kesishning zamonaviy usullari.
4. Bir tuyoqli hayvonlar tuyoqlarini kesishning zamonaviy usullari.
5. Sport otlari tuyoqlarini parvarishlash.
6. Taqalash va taqalashning ahamiyati.
7. Temirchilik ustaxonada taqani yasash.
8. Zamonaviy taqa turlari.
9. Zavod taqani yasash texnologiyasi.
10. Taqalashning zamonaviy usullari.
11. Tuyoq deformatsiyasi va uni bartaraf etishning zamonaviy usullari.
12. Yumshoq tovon va togay kasalliklari.
13. Hayvonlarni ortopedik taqalashning zamonaviy usullari.
14. Tuyoqning shox devori kasalliklari.
15. Tuyoq kafti kasalliklari.
16. Tuyoq devori teri asosi kasalliklari.
17. Barmoq paychalari va bursasi kasalliklari.
18. Barmoq va tuyoqlar qon va limfa tomirlari kasalliklari.
19. Barmoq va tuyoqlar nervlari kasalliklari.
20. Barmoq va tuyoqlarning infeksiyon kasalliklari.
21. Barmoq va tuyoqlarning aseptik kasalliklari.
22. Barmoqlarning bo'g'im kasalliklari.

Oliy ta'limning 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilimsohasining 70840107 - Trening va ot kasalliklari mutaxassisligi uchun tayyorlangan "Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklari" fanning o'quv

dasturiga

TAQRIZ

Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga mos ravishda qishloq xo'jaligi va veterinariya ilm-fanini raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida tahsil olayotgan magistrlar "Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklari" fanining rivojlanishi. Ot oyoqlarida uchraydigan kasalliklar. Otlar oyoq sohasini anatomotopografik va fiziologik xususiyatlari. Otlar oyoq sohasida olib boriladigan jarrohlik amaliyotlar. Otlar barmoq va tuyoq kasalliklari rivojlanishi mexanizmda yani patogenezida jarrohlik amaliyotining ahamiyati.

Fundamental fanlardan biri bo'lgan "Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklari" fani Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklariga qarshi amaliyot sharoitida profilaktik ishlarni bajarish, otlar oyoq patologiyalarini o'rganish va to'g'rilash, otlar barmoq va tuyoq kasalliklarining etiologiyasi va patogenezini o'rganish bilan birgalikda, davolash va oldini olishni o'rganish, shuningdek veterinariyada otlarni barmoq va tuyoq kasalliklarida zamonaviy konservativ davolash va operatsiya usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya qilish hamda otlar jarrohliligini o'rgatadigan fandır.

Fanni o'rganish uchun ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlash uchun yetarli darajada soatlar ajratilgan bo'lib, chorvachilik va veterinariya amaliyoti va fani sohalarining mutaxassisliklariga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.

Dasturda fanning maqsadi va vazifalari: fan bo'yicha talabalarning tasavvuri, bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi: fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni bo'yicha uslubiy ko'rsalmalar berilgan.

Dasturda fanning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya darslari va mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ko'rsalmalar, dars uchun kerak bo'ladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari alohida-alohida ifodalangan.

Dasturda ma'ruza va amaliy darslar, mustaqil mashg'ulotlarning mavzulari rejalashtirilgan soatlarga mos ravishda taqsimlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda "Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklari" fanidan tayyorlangan ushbu dasturni hozirgi davr va mutaxassislik bo'yicha malaka talablariga javob beradi, deb hisoblayman. "Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklari" fanining dasturini o'rnatilgan tartibda tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.

Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi direktori.

Allamurodova M.M.



**Oliy ta'limning 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilimsohasining 70840107 - Trening va ot kasalliklari mutaxassisligi uchun tayyorlangan "Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklari" fannining o'quv dasturiga**

**TAQRIZ**

Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga mos ravishda qishloq xo'jaligi va veterinariya ilm-fanini raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida tahsil olayotgan magistrlar "Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklari" fanining rivojlanishi. Ot oyoqlarida uchraydigan kasalliklar. Otlar oyoq sohasini anatomotopografik va fiziologik xususiyatlari. Otlar oyoq sohasida olib boriladigan jarrohlik amaliyotlar. Otlar barmoq va tuyoq kasalliklari rivojlanishi mexanizmi va patogenezi jarrohlik amaliyotining ahamiyati.

Fundamental fanlardan biri bo'lgan "Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklari" fani Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklariga qarshi amaliyot sharoitida profilaktik ishlarni bajarish, otlar oyoq patologiyalarini o'rganish va to'g'rilash, otlar barmoq va tuyoq kasalliklarining etiologiyasi va patogenezi o'rganish bilan birgalikda, davolash va oldini olishni o'rganish, shuningdek veterinariyada otlarni barmoq va tuyoq kasalliklarida zamonaviy konservativ davolash va operatsiya usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya qilish hamda otlar jarrohligini o'rgatadigan fandır.


Fanni o'rganish uchun ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlash uchun yetarli darajada soatlar ajratilgan bo'lib, chorvachilik va veterinariya amaliyoti va fani sohaslarining mutaxassisliklariga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.

Dasturda fanning maqsadi va vazifalari: fan bo'yicha talabalarining tasavvuri, bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi: fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni bo'yicha uslubiy ko'rsalmalar berilgan.

Dasturda fanning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya darslari va mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ko'rsalmalar, dars uchun kerak bo'ladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari alohida-alohida ifodalangan.

Dasturda ma'ruza va amaliy darslar, mustaqil mashg'ulotlarning mavzulari rejalashtirilgan soatlarga mos ravishda taqsimlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda "Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklari" fanidan tayyorlangan ushbu dasturni hozirgi davr va mutaxassislik bo'yicha malaka talablariga javob beradi, deb hisoblayman. "Otlarning barmoq va tuyoq kasalliklari" fanining dasturini o'rnatilgan tartibda tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.



**Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti,  
veterinariya va urchitish patologiyasi"**

**Ilmiy xodim O.U.Kuldashev**

23. Barmoqlarning pay kasalliklari.
24. Barmoqlarning suyak kasalliklari.
25. Modda almashinuvi buzilishidan kelib chiqadigan barmoq va tuyoq kasalliklari.
26. Bir tuyoqli hayvonlar oyoqlari distal qismi kasalliklarini davolashda dorivor o'simliklarni q'o'llash.
27. Bir tuyoqli hayvonlar oyoqlari distal qismi kasalliklarini davolashda fizioterapiya usullarini q'o'llash.
28. Bir tuyoqli hayvonlar oyoqlari distal qismi kasalliklarini davolashda patogenetik usullarni q'o'llash.
29. Bir tuyoqli hayvonlar oyoqlari distal qismi kasalliklarini davolashda qollanadigan zamonaviy asbob va uskunalari.
30. Bir tuyoqli hayvonlar ortopedik dispanserizatsiya.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha magistr talabalar tomonidan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda internet tarmoqlaridan foydalanib referat va uning taqdimoti, ko'z kasalliklari diagnostikasini, xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanishi, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqishi tavsiya etiladi.

**3. V. Ilmiy amaliyot (stajirovka).**

Ilmiy amaliyot ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy amaliyot (stajirovka) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrlar eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot ishlari, taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

**Ilmiy amaliyot (Stajirovka):**

- ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;
- fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;
- amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;
- kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim.

Bunda ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida ham bajarishi Ko'z da tutiladi. Ushbu holatda stajirovkani tashkil etish tartib-qoidolari amaldagi normativ-huquqiy hujjat (Nizom) asosida olib boriladi.



4.	<p><b>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakillanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Magistr bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• barmoq kasalliklari oqibatida kelib chiqadigan iqtisodiy zarar, yirik va mayda shoxli hayvonlar barmoq va tuyoqlarining tuzilishi va o'zaro farqi, ularni taqalash, aseptik va yiringli kasalliklarining oldini olishga va davolashga qo'yiladigan umumiy talablar haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi kerak; (bilim)</i></li> <li>• barmoq va tuyoq kasalliklariga klinik va laborator tashhis qo'yishning ilmiy asoslarini, tuyoq kasalliklarini davolashni amalga oshirishni, umumiy va barmoq sohasini mahalliy og'riqsizlantirishni, hayvonlar tuyoqlarini tozalashda va taqalashda texnika xavfsizligining nazariy asoslarini, tuyoq va tuyoqchalarni parvarish qilish usullarini ortopedik dispanserizatsiyani, hayvonlarni taqalash tartibini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i></li> <li>• uy, sport va qishloq xo'jalik hayvonlarida barmoq va tuyoq kasalliklarining etiologik omillarini tahlil qilish, tuyoq kasalliklarini davolashda konservativ va operativ usullarini qo'llash, tuyoqlarning tug'ma va ortirilgan patologiyalarini farqlash, oyoqlarning barmoq va tuyoqlarida samarali va arzon usullar bilan tuyoq kasalliklarining oldini olish, tuyoq kasalliklarini zamonaviy davolash usullarini qo'llash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi;</i></li> </ul>
5.	<p><b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
6.	<p><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p><b>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</b></p>
7.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tashtemirov R.M., Karimov M.G. "Ortopediya". O'quv qo'llanma. "Sharq", Toshkent. 2013 y.</li> <li>2. Tashtemirov R.M. Hayvonlarning mintaqaviy jarrohlik kasalliklari, o'quv qo'llanma. "Sharq", Toshkent, 2017</li> <li>3. Тимофеев С.В., Филиппов Ю.И и др. «Общая хирургия животных» Москва, "Зоомедлит". 2007.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik.</li> </ol>

	<p>"Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 52 b.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>6. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 36 b.</li> <li>7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 b.</li> <li>8. Dean A. Hendrickson and A. N. (Nickie) Baird. Turner and McIlwraith's Techniques in Large Animal Surgery, 4th Edition. © 2013 John Wiley &amp; Sons, Inc. Published 2013 by John Wiley &amp; Sons, Inc.</li> <li>9. David Weaver, Owen Atkinson and others Bovine surgery and lameness, third Edition, US, 2018.</li> </ol> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a></li> <li>2. <a href="http://www.veterinariya.medsinasi.uz">www.veterinariya.medsinasi.uz</a></li> <li>3. <a href="mailto:sea@mail.net21.ru">www.sea@mail.net21.ru</a></li> <li>4. <a href="mailto:veterinary@actavis.ru">www.veterinary@actavis.ru</a></li> </ol>
8.	<p>Fan dasturi samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti kengashining 2024-yil "2"-avgustdagi "12-sonli bayoni bilan ma'qullangan.</p>
9.	<p><b>Fan modul uchun mas'ullar:</b></p> <p><b>X.B.Niyozov</b> – SamDVMCHBU, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrası professori, veterinariya fanlari doktori</p> <p><b>R.M. Tashtemirov</b> – SamDVMCHBU, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrası professori, veterinariya fanlari nomzodi</p> <p><b>S.B.Abdiyev</b> – SamDVMCHBU, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrası katta o'qituvchisi v.f.f.d PhD</p>
10.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>O.U.Kuldashev</b> – Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti, "Veterinariya va urchitish patologiyasi" laboratoriyasi mudiri, v.f.d., kata ilmiy xodim.</p> <p><b>M.M.Allamurodova</b> – Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi direktori.</p>